SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-maxsus
son (5-jild)
2025

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V5SI4Y2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G‘aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo‘rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o‘g‘li — yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 4-maxsus son (May, 2025). - 295 bet.

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING HUQUQIY ASOSLARI YARATILISHI 10-16

Atamuratova Dilafruz
TURKISTON VAQTLI MATBUOTI TARIXI: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI 17-22

Abdushukurova Iqbol
TARIXIY KVESTLARNI TASHKIL QILISH USULLARI 23-27

Redjapov Doniyor
JANUBIY OROLBO‘YI AHOLISI HARBIY SAN’ATINING TARIXIY ILDIZLARI XUSUSIDA 28-31

Sultanov Samandar
QUYI ZARAFSHON VODIYSI GEOGRAFIK XUSUSIYATI: PALEOEKOLOGIYASI JARAYONLARIGA DOIR BA’ZI CHIZGILAR 32-35

Matyakubov G‘ayrat
XORAZM VOHASIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA ETNIK-MADANIY MUNOSABATLAR RIVOJLANISHIGA DOIR BA’ZI CHIZGILAR (XIII-XV ASRLAR)..... 36-39

Eshkuvatov Muhammad Keldiyor o‘g‘li
MARKAZIY OSIYO BOZORLARI (XIX ASR YEVROPALIK SAYYOHLAR NIGOHIDA) 40-45

G‘aniyev Mirjalol
QADIMGI TURKLARDA IJTIMOIY HAYOT 46-51

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Abdullaev Altinbek
KORXONALARDA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH LOYIHASI BOSH BYUDJETINING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 52-66

Latipov Ashur Ali, Umarova Muzira
INVESTITSIYA STRATEGIYASI VA UNING MENEJMENTDAGI O‘RNI 67-71

Rustamova Sayyora
STRATEGIK BOSHQARUV-RAQOBAT USTUNLIGINING ASOSI 72-77

Буранова Лола, Арипова Азиза
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТА ДОСУДЕБНОГО РАЗРЕШЕНИЯ НАЛОГОВЫХ СПОРОВ 78-87

Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich
KORXONALAR BOSHQARUVIDA “YASHIL” IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QO‘LLASH AHAMIYATI 88-94

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Saidov Xakim G‘afurovich
TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH – DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA 95-98

Kadirova Ziyoda
ILMIY IJODNING IJTIMOIY, MADANIY VA TARIXIY O‘LCHAMLARI 99-104

Muzaffarov Navruzxon Baxronovich
SHAYX XUDOYDOD VALINING INSON VA OLAM MUNOSABATLARIGA
OID QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI 105-108

Raxmatova Mexrinoz Majitovna
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISH BORASIDAGI
DAVLAT SIYOSATINING NAZARIY-HUQUQIY VA FALSAFIY ASOSLARI 109-113

Karimova Lola Muzafarovna
IJTIMOIY MOBILLIK NAZARIYASIGA YONDASHUVLARNING TARIXIY TAHLILI 114-119

Jumayeva Shahlo Suyunovna
JAN POL SARTRNING EKZISTENSIAL FALSAFASIDA ERKINLIK VA YOLG'IZLIK
MASALALARINI YORITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 120-125

Djurayev G'olib
JAN POL SARTR VA ALBER KAMYU FALSAFIY QARARSHLARIDA
ERKINLIK MASALASI 126-130

Rajabov O'tkirjon
KONSENSUS MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA
"TEMUR TUZUKLARI" ASARINING AHAMIYATI 131-134

Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi
GENDER ZO'RAVONLIGIGA QARSHI KURASH CHORALARI 135-139

Xudoykulov Azamat, Beshimova Aziza
MA'NAVIY BARKAMOL INSON TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI 140-144

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Abduganiyeva Djamila Rustamovna
MACHINE TRANSLATION POST-EDITING THROUGH A HERMENEUTIC LENS 145-151

Murtazayeva Xadicha
INGLIZ VA O'ZBEK TIBBIY TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI 152-155

Несипбаева Саодатхан
ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДАЧИ АМЕРИКАНСКИХ ДИАЛЕКТИЗМОВ
И ПРОСТОРЕЧИЙ В РУССКИХ ПЕРЕВОДАХ "ТОМА СОЙЕРА" 156-160

Axmedjanova Farida, Toirova Shohida
XX ASRDA AYOL OBRAZINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI 161-165

O'rinova Shoxsanamxon Nosirjon qizi
TAHDID NUTQIY AKTLARI: LINGVOPRAGMATIK TAHLIL
VA MENASIV KOMMUNIKATSIYA XUSUSIYATLARI 166-170

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Salaev Nodirbek
PENITENSIAR TIZIM VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI 171-178

Турсунов Ойбек Батирович
МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА
ГОСУДАРСТВ РЕГИОНА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ 179-184

Xakimova Inobatxon
XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING XALQARO HUQUQ DOIRASIDA
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI 185-191

Мардонов Амиржон Шерзод угли
ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ БАНКОВСКОГО СКОРИНГА 192-202

Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA KONVENSIONAL VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH 203-207

Xolmo‘minov Shavkat Jumaevich
EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI HUQUQIY TA’MINLASH SOHASIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 208-215

Khudayberganova Nigina To‘lqin qizi
THE NOTION AND CODIFICATION OF THE LAW ON SPECIAL MISSIONS IN INTERNATIONAL LAW 216-221

Саидов Бобур Бахромжонович
МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ВОПРОСАХ ИНТЕРНЕТ-ЮРИСДИКЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ УНИФИКАЦИИ ПРАВОВЫХ НОРМ И ПЕРСПЕКТИВЫ УЧАСТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ГЛОБАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМАХ РЕГУЛИРОВАНИЯ ... 222-229

Normurodova Behro‘za Xolmo‘minovna
RAQAMLI DALILLARNI TO‘PLASH VA TAHLIL QILISHDA INTERPOL VA EUROPOL TAJRIBASI: O‘ZBEKISTON UCHUN AMALIY AHAMIYATI 230-236

Qilichova Kamola Luqmonxon qizi
DINIY MAZMUNDAGI MATERIALLARNI QONUNGA XILOF RAVISHDA TAYYORLASH, SAQLASH, OLIB KIRISH VA TARQATISH JINOYATLARINING YURIDIK TARKIB BELGILARI 237-248

Shagilov Pulatbek Koptleuovich
BEZORILIKNING VIRTUAL YUZI:
HUQUQIY BAHOLASH VA JAVOBGARLIK MASALALARI 249-256

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Imomov Sirojiddin Ilxomovich
SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KASBIY-PEDAGOGIK TA’MINOTINING AHAMIYATI 257-263

Khayrova Madina Rasimovna
NATYURMORT JANRIDA ISHLAGAN RASSOMLAR ASARLARINING REKONSTRUKTIV TAHLILI 264-269

Mirkasimova Zilola Alisherovna
MAKTABGACHA YOSHDA NUTQ RIVOJI BOSQICHLARI 270-273

Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna
AXLOQIY RIVOJLANISH VA NEYROPEDAGOGIK USULLARNING O‘ZARO TA’SIRI 274-278

Shakirova Dildora Abdumalikovna
NODAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM SIFATINI XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA ASOSIDA BAHOLASH 279-285

Djurayeva Nargis Narkulovna
TABIIY FANLAR DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTENSIV METODLARNING QO‘LLANILISHI 286-290

Baltayeva Ma'mura, Davletova Bikajon
MEDIA LITERACY TEACHING METHODOLOGY 291-294

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 4 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES

Received: 05 May 2025
Accepted: 15 May 2025
Published: 30 May 2025

Article / Original Paper

IMPROVING THE METHODOLOGY OF THE CAPITAL BUDGET OF FLOUR PRODUCT PRODUCTION PROJECT IN ENTERPRISES

Abdullaev Altinbek Yangibayevich,
TSAU, Professor of the «Accounting, analysis and audit» department,
doctor of economic sciences, professor

Abstract. This study examines the financial difficulties encountered in managing the master budget (estimate) of a flour products production project at grain processing enterprises. The study develops algorithms and models for compiling a master budget (estimate) of a flour products production project based on artificial intelligence technologies, as well as a mechanism for assessing the master budget (estimate) of this project. Based on a quantitative approach to empirical research, it is possible to effectively manage the master budget of a project at grain processing enterprises, distribute costs between individual types of products, make and implement management decisions to increase income, find internal resources for reducing costs, create opportunities for enterprises to avoid bankruptcy processes, make scientifically based optimal decisions on long-term medium and long-term forecast indicators of the flour products production strategy based on artificial intelligence technologies, and create reasonable options for the rate of production of quality products.

Keywords: production of flour products, the main budget of the project, medium and long-term forecast indicators, bankruptcy processes, finding internal reserves.

KORXONALARDA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH LOYIHASI BOSH BYUDJETINING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullaev Altinbek Yangibaevich,
TDAU «Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit» kafedrasi professori,
i.f.d., professor

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda donni qayta ishlash korxonalarida un mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjeti (smetasi)ni boshqarish yuzasidan duch keladigan moliyaviy qiyinchiliklar o‘rganiladi. Tadqiqotda sun’iy intellekt texnologiyalari asosida un mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjeti (smetasi)ni tuzishga doir algoritmlar va modellar hamda ushbu loyihaning bosh byudjeti (smetasi)ni baholash mexanizmi ishlab chiqiladi. Empirik tadqiqotning miqdoriy yondashuvi asosida donni qayta ishlash korxonalarida loyihaning bosh byudjetini samarali boshqarish, xarajatlarni alohida mahsulot turlari o‘rtasida taqsimlash, daromadlarni oshirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish, xarajatlarni kamaytirishning ichki zaxiralarni izlab topish, korxonalarning bankrotlik jarayonlaridan qochish imkoniyatni yaratish, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida un mahsulotlarini ishlab chiqarish strategiyasining uzoq muddatga mo‘ljallangan o‘rta va uzoq muddatli prognoz ko‘rsatkichlari bo‘yicha ilmiy asoslangan optimal qarorlarni qabul qilish, sifatli mahsulot ishlab chiqarish sur’atining maqbul variantlari yaratiladi.

Kalit so‘zlar: un mahsulotlarini ishlab chiqarish, loyihaning bosh byudjeti, o‘rta va uzoq muddatli prognoz ko‘rsatkichlari, bankrotlik jarayonlari, ichki zaxiralarni izlab topish.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N09

Kirish. Dunyoda aholi sonining muntazam o‘sib borishi, iqlim o‘zgarishining oqibatlari va ta’minot zanjirlaridagi uzilishlar global miqyosda oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning keskin ortishiga hamda oziq-ovqat xavfsizligi masalasining keskinlashuviga sabab bo‘lmoqda. BMTning Oziq-ovqat inqiroziga qarshi kurashish bo‘yicha global tarmog‘i ma’lumotlariga ko‘ra, «2025-yilda global inqirozlarning tinimsiz to‘lqini, jumladan, mojarolar, iqtisodiy beqarorlik va iqlim bilan bog‘liq favquloddagi vaziyatlar tufayli 343 million kishi oziq-ovqat xavfsizligi inqiroziga duch kelmoqda»[1]. Mazkur inqirozni yumshatish uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, un va un mahsulotlarini ishlab chiqarish, xom ashyoni qayta ishlashni kengaytirish, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish zanjirining uzluksizligi, agrar ishlab chiqarishdagi resurslar hamda xarajatlar tejamkorligiga erishish orqali mahsulotlar tannarxini pasaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish, korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu sababli donni qayta ishlash korxonalarida boshqaruv hisobini tizimli tashkil etish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda loyihaning bosh byudjeti (smetasi)ni tuzishni takomillashtirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda donni qayta ishlash korxonalarining moliyaviy resurslarini boshqarish va nazorat qilish, xo‘jalik faoliyati natijalarini baholash va zaxiralarni shakllantirish, biznes rejada belgilangan ishlab chiqarish va moliyaviy-iqtisodiy maqsadlarga erishish, byudjetlashtirish tizimi va byudjet modellari samaradorligini ta’minlash masalalari tizimli va kompleks tarzda o‘rganilmaganligi sababli donni qayta ishlash korxonalarida raqobatbardosh un mahsulotlarni ishlab chiqarish, ularning rentabellik darajasini oshirish, zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, moliyaviy xo‘jalik faoliyatini rejalashtirish va hisob-tahlil tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Yuqorida qo‘yilgan muammoli masalalarning yechimini izlab topishga ko‘maklashadigan vositalardan biri – bu donni qayta ishlash korxonalarida un mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjeti (smetasi)ni ishlab chiqish masalasidir. Un mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasini byudjetlashtirish – bu korxonaning ma’lum davrga mo‘ljallangan moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini rejalashtirishdir [10; 293]. Rejalashtirish ko‘zda tutilgan uzoq muddatli strategik maqsadga erishish dasturlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Dasturlar bo‘yicha bosh byudjetini ishlab chiqish rejalashtirishning asosiy omilidir. Buning uchun un mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjeti bilan bog‘liq axborotlarni to‘plash, hujjatlashtirish, axborotlarni qayta ishlash va umumlashtirishda samarali usullarni ishlab chiqish va takomillashtirish zarur [9; 261].

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda donni qayta ishlash korxonalarida loyihaning bosh byudjetini samarali boshqarishga, xarajatlarni alohida mahsulot turlari o‘rtasida taqsimlash, daromadlarni oshirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirishga, xarajatlar sarflanishi va ko‘rilgan zararlarning yuqori darajasini aniqlash, ishlab chiqarishning ichki zahiralarini izlab topishga yetarlicha e’tibor qaratilganicha yo‘q. Bu holat ishlab chiqarishda ortiqcha xarajatlar sarflanishiga, tayyor mahsulotlarning yo‘qotilishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa donni qayta ishlash korxonalarida un mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjetini optimallashtirishni taqozo etmoqda [11; 317]. Donni qayta ishlash korxonalarida bosh byudjet to‘g‘risidagi axborotlarning yetarliligi va ishonchliligi biznesga rahbarlik qilish va boshqarishda raqobatdosh ustunliklarga erishish usullaridan biridir.

Bugungi kunga qadar donni qayta ishlash korxonalarida loyihaning bosh byudjeti usullarining maqsadi va ularni sohalarda qo‘llash to‘g‘risidagi axborotlar mavjud ilmiy ishlarda to‘liq yoritib berilmagan va umumlashtirilmagan. Hisob yuritishning uslubiy ta’minotlari donni qayta ishlash korxonalarida hisob yuritish nazariyasi va amaliyotida mavjud usullardan foydalanish va ularning tarmoq xususiyatlariga mos keladigan texnikalar bilan boyitib borishga yordam beradi. Biroq donni qayta ishlash korxonalarida loyihaning bosh byudjeti hisobini takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar, shuningdek, boshqaruv hisobi tizimida loyihaning bosh byudjetini boshqarishning samaradorligini muayyan usullar va yondashuvlardan foydalanmasdan hal qilib bo‘lmaydi.

Ammo bugungi kunda donni qayta ishlash korxonalarida un mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjetiga sezilarli darajada e’tibor bermaslik, nomukammal rejalashtirish, boshqaruvni tashkil etish qoidalarining buzilishi muayyan kamchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Xususan, donni qayta ishlash korxonalarida un mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada kamaydi, ularning sifati pasaydi, korxonalar o‘rtasida raqobatchilik kuchaydi. Bu holat mahsulot narxining nomutanosibligi va monopollashuviga, olingan mahsulotlarga o‘z vaqtida haq to‘lab bermaslik, resurslar narxining oshib ketishi va nazorat samaradorligining susayishiga sabab bo‘lmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida un mahsulotlarini ishlab chiqarish strategiyasining uzoq muddatga mo‘ljallangan o‘rta va uzoq muddatli prognoz ko‘rsatkichlari ilmiy asoslangan optimal qarorlarni qabul qilish, sifatli mahsulot ishlab chiqarish sur’atining maqbul variantlarini ishlab chiqish maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili. Korxonalarning boshqaruv hisobi tizimida byudjetlashtirish uslubiyatini takomillashtirish masalalari ustida *Drobina N.S., Sidorov S. A., Yandanov L.Yu., Ternovых V. K., Pletenskoy D.M., C. Drury* kabi iqtsodchi olimlar ilmiy tadqiqot olib borgan. Xususan*, Drobina N.S.* o‘zining tadqiqotida rejalashtirish, buxgalteriya hisobi, hisobot, tahlil, monitoring va prognozlash funksiyalarini tizimli amalga oshirish asosida mavjud resurslardan samarali foydalanish va tezkor boshqarishni ta’minlaydigan konseptual elementlar sifatida umumiy uslubiy parametrlar va tarkibiy bloklar ko‘rinishidagi boshqaruv hisobi va biznes jarayonlarini byudjetlashtirish tizimi ilmiy asoslangan; ishlab chiqarish tannarxiga kiritilgan xarajatlarni hisobga olish va nazorat qilish uchun don mahsulotlarini yetishtirishning me’yoriy tartibi bilan asoslangan, kichik jarayonlar va texnologik bosqichlarni aks ettiruvchi biznes-jarayon pasporti asosida xarajatlarning boshqaruv hisobini tashkil etish va mahsulot ishlab chiqarish biznes-jarayonini byudjetlashtirishga yondashuv ishlab chiqilgan; agrosanoat majmui kichik kompleksi bo‘lgan g‘alla yetishtirishni tashkil etishning raqobatbardoshligini ta’minlash va buxgalteriya hisobi va tahlil tizimida tashqi muhitdagi o‘zgarishlarni uning boshqaruv va moliyaviy jihatlarini o‘zgartirish bilan aks ettirish, tavakkalchilik oqibatlarini bartaraf etish, xo‘jalik faoliyatining takrorlanuvchanligi va shartli faktlarini baholashning tanqidiy tahlilini o‘tkazish uchun tadbirkorlik risklarining boshqaruv monitoringini o‘tkazish taklif etilgan [4; 24].

Sidorov S. A. o‘zining tadqiqotida byudjetlashtirish jarayonini tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha rossiyalik va xorijiy ekspertlarning fikrlari va pozitsiyalari tizimlashtirilgan; samarali byudjet jarayonini shakllantirish shartlari belgilangan; yirik xolding tuzilmalarida byudjetlashtirishning muammoli sohalari aniqlangan; yirik kompaniyalar uchun byudjetlashtirish bo‘yicha ichki me’yoriy hujjatlarning tuzilishi va tavsifi taklif etilgan; byudjet

tizimiga, shuningdek, soliq byudjetiga “byudjet tuzishning ssenariy shartlari” bo‘limini kiritish zarurligi asoslangan; byudjetlashtirishda maxsus tahliliy boshqaruv tasniflagichlaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligi asoslangan [6; 20].

Yandanov L.Yu. boshqaruv axborotiga bo‘lgan ehtiyoj nuqtai nazaridan byudjet tuzish xarajatlari tasniflashtirilgan va kengaytirilgan; marjinal xarajatlarni tahlil qilish metodologiyasi asoslab berilgan va tavsiya etilgan, jumladan, byudjetlarni “xarajatlar – chiqimlar — natijalar” munosabatlari ishlab chiqilgan; byudjetlashtirish jarayonining axborot bazasi sifatida me’yoriy direkt-kosting metodologiyasi ishlab chiqilgan; mas’uliyat markazlari tomonidan buxgalteriya hisobini tashkil etish va qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun ichki boshqaruv hisobotlarini tayyorlash bo‘yicha tavsiyalar berilgan; asosiy byudjetlarning formatlari va byudjetlashtirishning zarur elementi sifatida buxgalteriya hisobidagi pul oqimlarini tahlil qilish metodologiyasi taklif etilgan [8; 24].

Ternovых V.K. o‘zining tadqiqotida agrosanoat majmuasining yaxlit tuzilmalarida byudjetlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, bir tomondan, kompleks shakllanishda ishtirok etuvchi korxonalarda boshqaruv hisobini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, ikkinchi tomondan, qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarishni turlicha tashkil etish bilan bog‘liq byudjetlashtirishni amalga oshirish va faoliyat yuritishning turli texnologiyalarini nazarda tutgan; agrosanoat kompleksining yaxlit tuzilmalarida byudjetlashtirishni amalga oshirish va samarali faoliyat ko‘rsatishiga to‘sqinlik qiluvchi obyektiv va subyektiv omillar aniqlangan; kompleks shakllanishda byudjetlashtirishni amalga oshirishning bosqichma-bosqich tartibi asoslab berilgan; integratsiyalashgan birlashma faoliyati to‘g‘risidagi moliyaviy/nomoliyaviy prognoz, rejalashtirish va buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini to‘plash va birlashtirish asosida shakllantirilgan byudjet axborot bazasini yaratishga uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan [9; 24].

Pletenskoy D.M. ning tadqiqotida buxgalteriya hisobining “ikki bosqichli yozuv“ usuli elementiga asoslangan boshqaruv hisobi, hisobot va byudjet tizimlarini sinxronlashtirish orqali integratsiyalashgan buxgalteriya hisobi va tahliliy tizimini yaratishga ilmiy asoslangan yondashuv taklif etgan. Bunda buxgalteriya hisobining ikkinchi davrasida rejali va prognoz ma’lumotlarini hisobga olish, qo‘shimcha avtomatlashtirilgan hisob-kitoblarni amalga oshirish, ichki ma’lumotlar, avtomatik hisob-kitoblarni amalga oshirish uslubi ishlab chiqilgan; boshqaruv hisobining analitik xarakterini oshirishga, real vaqt rejimida buxgalteriya hisobi va tahliliy tizimda byudjetlashtirish metodologiyasi takomillashtirilgan [5; 23].

Bu ssenariy modellashtirish jarayonlarini va reja-fakt tahlilini ishlab chiqishga yordam beradi; qishloq xo‘jaligi korxonalarining boshqaruv hisobi va byudjet tizimlarida buxgalteriya hisobi obyektini o‘zgartirish uchun zaxira yaratish zarurati asoslangan va ularni hisoblash formulasi tuzilgan; buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini taqdim etish uchun byudjet shakli taklif etilgan, bu shakl qishloq xo‘jaligi tashkilotida ob-havo sharoitlari va noqulay ob-havo sharoitlari va tarkibini o‘zgartirish sharoitida ishlab chiqarish jarayonini tuzatish imkoniyatini ta’minlash uchun resurslar zaxirasini shakllantirishga qaratilgan [7; 24].

Ammo yuqoridagi ilmiy ishlarda empirik tadqiqotning miqdoriy yondashuvi asosida donni qayta ishlash korxonalarida un mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjetini samarali boshqarish, korxonalarning bankrotlik jarayonlaridan qochish imkoniyatni yaratish, sun’iy intellekt texnologiyalari asosida un mahsulotlarini ishlab chiqarish strategiyasining uzoq muddatga mo‘ljallangan o‘rta va uzoq muddatli prognoz ko‘rsatkichlari

ilmiy asoslangan optimal qarorlarni qabul qilish, sifatli mahsulot ishlab chiqarish sur'atining maqbul variantlarini ishlab chiqishni ilmiy asoslash bilan bog'liq tadqiqotlar olib borilmagan.

Metodologiya. Aytish joizki, donni qayta ishlash korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining intensiv o'sishi loyihaning bosh byudjeti usullarini ishlab chiqish, xarajatlarni alohida mahsulot turlari o'rtasida taqsimlash, daromadlarni oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirishga ta'sir etuvchi omillarning ta'siri bilan ta'minlanadi. Bu holat aynan, korxonalarning boshqaruv hisobi tizimida loyihaning bosh byudjetini ilmiy asoslab berishni taqozo etadi. Maqsadimiz – donni qayta ishlash korxonalarida loyihaning byudjetini samarali boshqarish, xarajatlarni alohida mahsulot turlari o'rtasida taqsimlash; daromadlarni oshirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish, xarajatlarni kamaytirishning ichki zaxiralarni izlab topish, korxonalarning bankrotlik jarayonlaridan qochish imkoniyatni yaratish, sun'iy intellekt texnologiyalari asosida un mahsulotlarini ishlab chiqarish strategiyasining uzoq muddatga mo'ljallangan o'rta va uzoq muddatli prognoz ko'rsatkichlari ilmiy asoslangan optimal qarorlarni qabul qilish, sifatli mahsulot ishlab chiqarish sur'atining maqbul variantlarini ishlab chiqish hamda ular bilan bog'liq bo'lgan elementlarni umumlashtirish va yaxlit tizimlashtirishdan iborat.

Bugungi kunda donni qayta ishlash korxonalarida un mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjetini samarali baholash algoritmlari va modellari yaratilmagan. Korxonalarda un mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjeti tarkibiga matematik tavsif berish uchun ularni ifodalovchi miqdor va sifat ko'rsatkichlariga jiddiy e'tibor qaratmoq zarur. Ushbu maqsadni amalga oshirishimiz uchun donni qayta ishlash korxonalarida un mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjeti (smetasi)ni tuzishga doir algoritmlar va modellarni quyidagi tartibda ishlab chiqdik:

1. Asosiy va aylanma kapitallar umumiy qiymati (K_{aq}) bino va inshootlarning qiymati (B_{iq}), tegimon uskunasining qiymati (T_{uq}), omuxat yem tayyorlash uskunasining qiymati (E_{uq}), don tozalash uskunasining qiymati (U_{dt}), xom ashyo zahiralari (Z_{xa}) qiymatining yig'indisiga teng

$$\mathbf{K_{aq} = B_{iq} + T_{uq} + E_{uq} + U_{dt} + Z_{xa}}$$

2. Boshqa turdagi umumiy moliyaviy xarajatlar (M_{xu}) jami moliyaviy xarajatlar (M_{xj}), investitsiya uchun hisoblangan foizlar (M_{xi}), garov shartnomasini rasmiylashtirish xarajatlari (M_{xsh}), garovni sug'urtalash (M_{xs}), bojxona xarajatlari (M_{xb}), yuk tovar deklaratsiyasi uchun to'lovlar (M_{xd}), ko'zda tutilmagan xarajatlar (M_{xk}) yig'indisiga teng

$$\mathbf{M_{xu} = M_{xj} + M_{xi} + M_{xsh} + M_{xs} + M_{xb} + M_{xd} + M_{xk}}$$

3. Loyihaning boshlang'ich qiymati (Q_{ld}) asosiy va aylanma kapitallar umumiy qiymati (K_{aq}) bilan boshqa turdagi umumiy moliyaviy xarajatlar (M_{xu}) yig'indisiga teng

$$\mathbf{Q_{ld} = (K_{aq}) + M_{xu}}$$

4. Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (A_{oq}) asosiy vositalarning balans qiymati (A_{bq}), asosiy vositalarning eskirish qiymati (A_{eq}) ayirmasiga teng

$$\mathbf{A_{oq} = A_{bq} - A_{eq}}$$

5. Asosiy vositalar eskirishi (A_{ve}) asosiy vositalarning qoldiq qiymati bilan (A_{qq}) ularga belgilangan me'yor (A_{vm}) ulushining ko'paytmasiga teng

$$A_{ve} = A_{qq}^{*} A_{vm}$$

6. Mol-mulk solig‘i (S_{ms}) asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati (A_{oq}) bilan soliq stavkasi (S_{sm}) ko‘paytmasiga teng

$$S_{ms} = A_{oq} * S_{ms} / 100$$

7. Mahsulot ishlab chiqarish umumiy quvvati (K_{iu}) oliy navli un ishlab chiqarish quvvati (K_{io}), birinchi navli un ishlab chiqarish quvvati (K_{ib}), dondan ajraladigan chiqindilar quvvati (K_{dch}) va donni texnik yo‘qotish quvvatining (K_{yo}) yig‘indisiga teng

$$K_{iu} = K_{io} + K_{ib} + K_{dch} + K_{yo}$$

8. Mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmi (M_{hu}) oliy navli un ishlab chiqarish hajmi (M_{ho}), birinchi navli un ishlab chiqarish hajmi (M_{hb}), dondan ajraladigan chiqindilar hajmi (M_{dch}) va donni texnik yo‘qotish hajmining (M_{yo}) yig‘indisining un chiqish ulushi ko‘paytmasiga teng

$$M_{iu} = (M_{io} + M_{ib} + M_{dch} + M_{yo}) * k_i, \ (k_i = 0,6; 0,7; 0,8; 0,9; 1,0)$$

9. Zaxiraga olingan mahsulotlar umumiy hajmi (M_{hu}) zahiraga olingan oliy navli un hajmi (M_{ho}), zaxiraga olingan birinchi navli un hajmi (M_{hb}), zaxiraga olingan mahsulotning doni bo‘yicha ajraladigan chiqindilar hajmi (M_{dch}), zaxiraga olingan mahsulotning doni bo‘yicha texnik yo‘qotishlar hajmi (M_{yo}) yig‘indisining un chiqish ulushi ko‘paytmasiga teng

$$Z_{iu} = (Z_{io} + Z_{ib} + Z_{dch} + Z_{yo}) * k_i,$$

10. Mahsulotni sotish umumiy hajmi (S_{iu}) oliy navli unning sotish hajmi (S_{io}), birinchi navli unning sotish hajmi (S_{ib}), dondan ajraladigan chiqindilar hajmi (S_{dch}), donni texnik yo‘qotishlar hajmi (S_{yo}) yig‘indisining narxlar (n_i) ko‘paytmasiga teng

$$S_{iu} = (M_{io} - Z_{io}) * n1 + (M_{ib} - Z_{ib}) * n1 + (M_{dch} - Z_{dch}) * n1 + (M_{yo} - Z_{yo}) =$$

$$= S_{io} * n1 + S_{ib} * n2 + S_{dch} * n3 + S_{yo}$$

11. Mahsulotga sarf qilinadigan xom ashyo va materiallar xarajatlari miqdori (X_{mb}) chetdan sotib olingan bug‘doy miqdori (X_{bx}), mahalliy hududdan sotib olingan bug‘doy miqdori (X_{bm}), polipropil qoplar (X_{pq}), ip (X_{ip}), chetdan sotib olingan etiketkalar (X_{ex}), mahalliy hududdan sotib olingan etiketkalar (X_{em}) yig‘indisining narxlar (n_i) ko‘paytmasiga teng

$$X_{mb} = X_{bx} * n1 + X_{bm} * n2 + X_{pq} * n3 + X_{ip} * n4 + X_{ex} * n5 + X_{em} * n6$$

bu yerda $n_1, n_2, n_3, n_4, n_5, n_6,$ – xom ashyo va materiallar narxi

12. Boshqa xarajatlar hajmi (X_{bh}), ehtiyot qismlar (X_{eq}), joriy ta’mirlash va prfilaktika xarajatlari (X_{jt}), bank xizmatlari uchun to‘lovlar (X_{bu}), transport xarajatlari (X_{tt}), ma’muriy xarajatlar (X_{mb}), sotish xarajatlari (X_{sx}), boshqa ishlab chiqarish xarajatlari (X_{xx}) yig‘indisining ulushlar (n_i) ko‘paytmasiga teng

$$X_{bb} = X_{bh} * u_1 + X_{eq} * u_2 + X_{jt} * u_3 + X_{bu} * u_4 + X_{tt} * u_5 + X_{mb} * u_6 + X_{tt} * u_7 + X_{mb} * u_8$$

bu yerda $u_1, u_2, u_3, u_4, u_5, u_6, u_7, u_8$ – ulushlar, foizda

13. Boshqa operatsion xarajatlar (X_{kt}) elektroenergiya uchun to‘lov (X_{et}), gaz uchun to‘lov (X_{gt}), suv uchun to‘lov (X_{st}), kanalizatsiya uchun to‘lov (X_{tk}), chiqindi uchun to‘lov (X_{ch}),

ishchilar kiyimi (X_{ik}), internet xizmatlari uchun to‘lov (X_{ti}), aloqa xizmatlari uchun to‘lov (X_{at}) yig‘indisining narxlar (n_i) ko‘paytmasiga teng

$$X_{kt} = X_{bh}*n_1 + X_{et}*n_2 + X_{gt}*n_3 + X_{st}*n_4 + X_{tk}*n_5 + X_{ch}*n_6 + X_{ik}*n_7 + X_{ti}*n_8 + X_{at}*n_8$$

14. Yillik ish haqi fondi (I_{hf}) ishchi va xodimlar soniga (I_{ix}) ularga belgilangan oylik ish haqining ko‘paymasi (I_{oh}), ishchi va xodimlarga hisoblangan ish haqi uchun ijtimoiy soliq (I_{is}), ma’muriy boshqaruv xodimlar soniga (I_{bx}) ularga belgilangan oylik ish haqining ko‘paymasi (I_{bh}), ma’muriy boshqaruv xodimlarga hisoblangan ish haqi uchun ijtimoiy soliq (I_{si}) yig‘indisiga teng

$$I_{hf} = ((I_{ix}*I_{oh} + I_{is}) + (I_{bx}*I_{bh} + I_{si})) * 12 = (I_{ich} + I_{ba}) * 12$$

15. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi (T_{ich}), mahsulotga sarf qilinadigan xom ashyo va materiallar xarajatlari miqdori (X_{mb}), ehtiyot qismlar (X_{eq}), tarnsport xarajatlari (X_{tt}), joriy ta’mirlash va profilaktika xarajatlari (X_{jt}), boshqa operatsion xarajatlar (X_{kt}), ishchi va xodimlar ish haqi va ijtimoiy soliq to‘lovlar (I_{ich}), asosiy vositalarning amortizatsiya ajratmalari (A_{ve}), boshqa ishlab chiqarish xarajatlari (X_{xx}) yig‘indisiga teng

$$T_{ich} = X_{mb} + X_{eq} + X_{tt} + X_{jt} + X_{kt} + I_{ich} + A_{ve} + X_{xx}$$

16. Sotilgan mahsulotlarning tannarxi (T_{sm}) mahsulot ishlab chiqarish tannarxi (T_{ich}), zaxiraga olingan mahsulotlarning umumiy hajmi (M_{hu}) yig‘indisiga teng

$$T_{sm} = T_{ich} - M_{hu}$$

17. Foizlar shaklidagi xarajatlar (X_{kf}) ssudaning qoldiq summasi (S_{qs}), o‘rnatilgan foiz (F_{bf}), foiz hisoblangan kunlar soni (K_{ss}) ko‘paytmasi va ularning 365 kun 100 ga ko‘paytmasi

$$X_{kf} = (S_{qs} * F_{bf} * K_{ss}) : 365*100$$

18. Mahsulotlarni sotishning yalpi foydasi (zarar) (Y_{fd}) mahsulotlarni sotishdan sof tushum (S_{iu}), sotilgan mahsulotlarning tannarxi (T_{sm})

$$Y_{fd} = S_{iu} + T_{sm}$$

17. Davr xarajatlari (X_{dv}) sotish xarajatlari (X_{sx}), ma’muriy xodimlar ish haqi va ijtimoiy soliq (I_{ich}), boshqa operatsion xarajatlar (X_{bo}), kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davr xarajatlari (S_{dx})

$$X_{dv} = X_{sx} + I_{ich} + S_{dx} + X_{bu} + X_{bm}$$

18.Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (F_{fz}) mahsulotlarni sotishning yalpi foydasi (zarar) (F_{yf}) bilan davr xarajatlari (X_{dv}) ayirmasi va ulardan olingan natija bilan asosiy faoliyatning boshqa daromadlari (F_{bd}) bilan yig‘indisiga teng

$$F_{fz} = F_{yf} — X_{dv} + F_{bd}$$

19. Moliyaviy faoliyatning daromadlari (D_{mf}) dividendlar shaklidagi daromadlar (D_{dd}), foizlar shaklidagi daromadlar (D_{fsh}), uzoq muddatli ijara (lizing)dan daromadlar (D_{ui}),, valyuta kursi farqidan daromadlar (D_{vk}), moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlar (D_{mb}) yig‘indisiga teng

$$D_{mf} = D_{dd} + D_{fsh} + D_{ui} + D_{vk} + D_{mb}$$

20. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar (X_{mf}) foizlar shaklidagi xarajatlar (X_{kf}), moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar (X_{mb})

$$\mathbf{X_{mf} = X_{kf} + X_{mb}}$$

21. Cotilgan mahsulot xarajatlari (X_{jx}) sotilgan mahsulotlar tannarxi (T_{sm}), davr xarajatlari (X_{dv}), moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar (X_{mf})

$$\mathbf{X_{jx} = T_{ich} + X_{dv} + X_{mf}}$$

19. Umumxo‘jalik faoliyatining foydasi (F_{ux}) asosiy faoliyat foydasi (zarari) (F_{fz}) bilan moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromadlar (D_{mf}) yig‘indisi va ulardan olingan natijalar bilan moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar (X_{mf}) ayirmasiga teng

$$\mathbf{F_{ux} = F_{fya} + D_{mf} - X_{mf}}$$

20. Foyda solig‘i to‘langunga qadar foyda (zarar) (F_{tq}) umumxo‘jalik faoliyatining foydasi (F_{ux}), favquloddagi foyda va zararlar (F_{fz}) yig‘indisiga (ayirmasiga) teng

$$\mathbf{F_{tq} = F_{ux} +/- F_{fz}}$$

21. Foyda solig‘i miqdori (S_{fs}) foyda solig‘i to‘langunga qadar foyda (zarar) (F_{tq}) bilan soliq stavkasi (S_{sf}) ko‘paytmasiga teng

$$\mathbf{S_{ms} = F_{tq} * S_{sf} / 100}$$

22. Qo‘shilgan qiymat solig‘i (S_{qs}) mahsulotni sotish umumiy hajmi (S_{iu}) bilan soliq stavkasi (S_{sq}) ko‘paytmasiga teng

$$\mathbf{S_{qs} = S_{iu} * S_{sq} / (S_{sq} + 100)}$$

23. Mahsulotning ulgurji sotish qiymati (qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan birga) (Q_{uq}) mahsulotning ulgurji qiymati (Q_{ss}) (qo‘shilgan qiymat solig‘isiz) bilan qo‘shilgan qiymat solig‘i(Q_{qs}) ayirmasiga teng

$$\mathbf{Q_{uq} = Q_{ss} — Q_{qs}}$$

24. Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (F_{sf}) foyda solig‘ini to‘langunga qadar foyda (zarar)ning (F_{tq}) foyda solig‘i (F_{ff}) bilan foydadan boshqa soliqlar va yig‘imlar (F_{bs}) ayirmasiga teng

$$\mathbf{F_{sf} = F_{tq} - F_{ff} - F_{bs}}$$

28. Rentabellik darajasi:

28.1. Mahsulotlarni sotishdan tushgan sof tushumning rentabellik darajasi (R_{ya}) sof foydaning (F_{sf}) mahsulotlarni sotishdan tushgan sof tushumga (S_{iu}) nisbat ko‘rinishida ifodalanadi

$$\mathbf{R_{ya} = F_{sf} * 100 / S_{iu}}$$

28.2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxining rentabellik darajasi (R_{ut}) sof foydaning (F_{sf}) mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga (T_{ich}) nisbat ko‘rinishida ifodalanadi:

$$\mathbf{R_{ut} = F_{sf} * 100 / T_{ich}}$$

28.3. Cotilgan mahsulot xarajatlarining rentabellik darajasi (R_{ut}) sof foydaning (F_{sf}) cotilgan mahsulot xarajatlari (X_{jx}) bo‘lgan nisbat ko‘rinishida ifodalanadi:

$$R_{ut} = F_{sf} * 100 / X_{jx}$$

29. Mahsulotni zararsiz sotish hajmi (S_{zs}) doimiy xarajatlarning (S_{dx}), mahsulot birligi bahosi (S_{mb}) bilan o‘zgaruvchan xarajatlarning mahsulot birligi (S_{om}) ayirmasiga bo‘lgan nisbatga teng

$$S_{zs} = S_{dx} : (S_{mb} — S_{om})$$

30. Mahsulot sotish rejasi (S_{rs}) doimiy xarajatlar summasi (S_{dx}) bilan foyda summasi (S_{ff}) ayirmasining mahsulot birligi bahosi (S_{mb}) bilan o‘zgaruvchan xarajatlarning mahsulot birligi (S_{om}) ayirmasiga nisbatiga teng

$$S_{zs} = (S_{dx} - S_{ff}) : (S_{mb} — S_{om})$$

31. Mahsulotning zararsiz sotish koeffitsienti (Nzk) mahsulotni zararsiz sotish hajmining (Szs) mahsulot sotish rejasiga (Srs) bo‘lgan nisbatga teng

$$N_{zk} = S_{zs} : S_{rs}$$

32. Sof aylanma kapital (Ksa) xom ashyo va materiallar zahirasi (Zxm), ehtiyot qismlar zaxirasi (Zeq), tayyor mahsulotlar zaxirasi (Ztm), debitorlik qarz (Qdq) yig‘indisi va ulardan olingan natijalar bilan kreditorlik qarz (Kkq) ayirmasiga teng

$$K_{sa} = Z_{xm} + Z_{eq} + Z_{tm} + Q_{dq} — K_{kq}$$

33. Aktivlar (Aja) tovar-moddiy zaxiralar (Atz), pul mablag‘lari (Apm), olinadigan schyotlar (Aoch), asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati (Abq), hisoblangan amortizatsiya (Aha), asosiy vositalarning sof qiymati (Asq), uzoq muddatli investitsiyalar (Aui), boshqa uzoq muddatli aktivlar (Abu) yig‘indisiga teng

$$A_{ja} = A_{tz} + A_{pm} + A_{och} + A_{bq} + A_{ha} + A_{sq} + A_{ui} + A_{bu}$$

34. Majburiyatlar (Mjm) to‘lanadigan schyotlar (Mtch), qisqa muddatli qarz majburiyatlari (Mqm), hisoblangan majburiyatlari (Mhm), uzoq muddatli majburiyatlari (Mum) yig‘indisiga teng

$$M_{jm} = M_{jm} + M_{jm} + M_{jm} + M_{jm}$$

35. Kapital (Kjk) oddiy aksiyalar (Koa), qo‘shilgan kapital (Kqk), zahira kapitali (Kzk), taqsimlanmagan foyda (Ktf) yig‘indisiga teng

$$K_{jk} = K_{oa} + K_{qk} + K_{zk} + K_{tf}$$

36. Aktivlar (Aja) majburiyatlar (Mjm) bilan kapitalning (Kjk) yig‘indisiga teng

$$A_{ja} = M_{jm} + K_{jk}$$

37. Donni qayta ishlash korxonalari loyihasini byudjetlashtirish shartlari quyidagi tengsizliklar ko‘rinishida ifodalanadi:

$$K_{iu} > M_{hu};\ M_{hu} > Z_{iu};\ M_{h\,u} > S_{iu};\ X_{bh} > X_{ut};\ T_{ich} > T_{sm};\ Y_{fd} > F_{fz};\ D_{mf} > F_{ux};\ F_{ux} > F_{sf}$$

Demak, ma’lum bir davr (oy, chorak, yil) uchun donni qayta ishlash korxonalari loyihasining bosh byudjeti qoidasida tuzilgan modellar va algoritmlardan foydalanish mumkin. Ularning tipik shartlari rejalashtirish davriga mutanosib ravishda iqtisodiy ko‘rsatkichlar miqdor va sifat jihatdan hisobga olingan holda umumlashtiriladi va tizimlashtiriladi [2; 31-46].

Muhokama va natijalar. Sun’iy intellekt texnologiyalari sharoitida donni qayta ishlash korxonalari loyihasining bosh byudjeti bilan bog‘liq bo‘lgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish muammolar yechimini topishda ikki yoki undan ortiq variantlarni taqqoslagan holda ulardan optimal variantini tanlab olishni taqozo etadi. Buning uchun kompyuterda empirik tadqiqotni amalga oshirishda funksional, dasturiy, axborot ta’minotlari va boshqa tashkiliy-uslubiy tadbirlar ishlab chiqish lozim.

Funksional ta’minot donni qayta ishlash korxonalarida un mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjeti modellari va algoritmlariga asoslanadi. Ular o‘rtasidagi aloqadorlik yagona ma’lumotlar bazasiga asoslanadi. Axborotlarni qayta ishlashda axborot manbaiga kiritiladigan va chop etiladigan natijalar alohida guruhlarga ajratiladi. Xotiraga kiritiladigan axborotlar korxonalar loyihasini byudjetlashtirish bilan bog‘liq axborotlar to‘plamini tashkil etadi [1; 415-428].

Kompyuter xotirasidagi ma’lumotlar asosida donni qayta ishlash korxonalarida un mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi bosh byudjetining iqtisodiy ko‘rsatkichlari tizimi tahlil qilinadi. Tadqiqotda hisob-kitob iteratsiyalaridan olingan natijalarga qarab, tajribani davom ettirish yoki tugatish borasida qaror qabul qilinadi [3; 48-59]. Qo‘yilgan masalaning tizimli axborot va mantiqiy aloqalar qoidasiga asoslanib funksional, dasturiy va axborot ta’minoti asosida donni qayta ishlash korxonalarida un mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjetini baholash sxemasini ishlab chiqdik (1-rasm).

Loyihani byudjetlashtirish ishlab chiqilgan ssenariylar orqali un mahsulotlarini ishlab chiqish loyihasining bosh byudjeti (smetasi)ni shakllantirish mumkin. Bunda turli darajadagi menejerlar axborotlar bazasiga murojaat qilganda erishilgan natijalar qanoatlantirmasa, protsedura ijobiy natija erishilgunga qadar takroriy murojaat qilib, muqobil variantlar bo‘yicha qarorlar qiyosiy baholanadi.


Qaror qabul qiluvchi shaxslar (turli menejerlar)
Loyihaning dastlabki qiymatini hisoblash algoritmi
Ishlab chiqarish byudjetini hisoblash algoritmi
Ma'lumotlar bazasi
Materiallarni xarid qilish va foydalanish byudjetini hisoblash algoritmi
Tijorat xarajatlari byudjetini hisoblash algoritmi
Sotuv byudjetini hisoblash algoritmi
Umumishlab chiqarish xarajatlari byudjetini hisoblash algoritmi
Umumiy xarajatlari byudjetini hisoblash algoritmi
Mehnat xarajatlari byudjetini hisoblash algoritmi
Boshqaruv xarajatlari byudjetini hisoblash algoritmi
Moliyaviy natijalar to'g'risidagi kutilayotgn hisobotni hisoblash algoritmi
Moliya byudjetini hisoblash algoritmi
Buxgalteriya balansi loyihasini hisoblash algoritmi
Pul mablag'lari byudjetini hisoblash algoritmi
Kapital xarajatlari byudjetini hisoblash algoritmi
Qabul qilingan qarorni tahlil qilish va baholash mexanizmi
Erishilgan natijalar mutanosibligini va optimalligini tekshirish

1 – rasm. Un mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjeti (smetasi)ni baholash mexanizmi

1 – jadval. "ABC" korxonasida un mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjeti (smetasi)*

Koʻrsatkichlar	Bosh byudjet (smeta)			
	1 yil	2 yil	3 yil	4 yil
Loyihaning boshlangʻich qiymati, $	2398044	2398044	2398044	2398044
Asosiy vositalarning oʻrtacha yillik qoldiq qiymati, $	2223255	2223255	2223255	2223255
Asosiy vositalar eskirishi, $	268034	268034	268034	268034
Mol-mulk soligʻi, $	33349	28777	24205	19632
Mahsulot ishlab chiqarish umumiy quvvati, **tn**	31 300	31 300	31300	31300
oliy sort un (50 kg qadoqlangan qopda)	234750	234750	234750	234750
birinchi sort un (50 kg qadoqlangan qopda)	234750	234750	234750	234750
bugʻdoy chiqindisi, kg	7042500	7042500	7042500	7042500
texnik yoʻqotishlar, kg	782500	782500	782500	782500
Mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmi				
oliy sort un (50 kg qadoqlangan qopda)	140850	187800	211275	234750
birinchi sort un (50 kg qadoqlangan qopda)	140850	187800	211275	234750
bugʻdoy chiqindisi	4225500	5634000	6338250	7042500
texnik yoʻqotishlar	469500	626000	704250	782500
Zaxiraga olingan mahsulotning umumiy hajmi (8,33%)				
oliy sort un (50 kg qadoqlangan qopda)	11733	15644	17599	19555
birinchi sort un (50 kg qadoqlangan qopda)	11733	15644	17599	19555
bugʻdoy chiqindisi	351984	469312	527976	586640
texnik yoʻqotishlar	39109	52146	58664	65182
Uning ulgurji bahosi, $				
oliy sortli un mahsuloti, $	18.64	18.64	18.64	18.64
birinchi sortli un mahsuloti, $	15.23	15.23	15.23	15.23
Mahsulotni sotish umumiy hajmi, $	5253512	7004682	7880268	8755853
oliy sort un (50 kg qadoqlangan qopda), $	129117	172156	193676	215195
birinchi sort un (50 kg qadoqlangan qopda), $	129117	172156	193676	215195
bugʻdoy chiqindisi	3873516	5164688	5810274	6455860
texnik yoʻqotishlar	430391	573854	645586	717318
Xom ashyo va materiallar xarajatlari, $	7015739	7015739	7015739	7015739
Boshqa xarajatlar miqdori, $	447113	447113	447113	447113
Boshqa operatsion xarajatlar, $	218097	218097	218097	218097
Ish haqi fondi, $	10177	10177	10177	10177
Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, $	4759158	6345544	7138738	7931931
Sotilgan mahsulotlarning tannarxi, $	4344599	5792799	6516899	7240999
Foizlar shaklidagi xarajatlar, $	153898	130366	80086	27787
Mahsulotlarni sotishning yalpi foydasi (zarar), $	908913	1211883	1363369	1514854
Davr xarajatlari, $	89472	95029	94959	94889
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari), $	819441	1116854	1268410	1419965
Moliyaviy faoliyatning daromadlari, $	0	0	0	0

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar, $	185419	172394	127368	80332
Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari, $	5034049	6612967	7361065	8107142
Cotilgan mahsulotning xarajatlari, $	4619490	6060222	6739226	7416220
Umumxo‘jalik faoliyatining foydasi, $	396150	554699	651532	716844
Foyda solig‘ini to‘langunga qadar foyda (zarar), $	242252	424333	571445	689057
Foyda solig‘i, $	89792	80681	70823	60963
Qo‘shilgan qiymat solig‘i, $	422309	563079	633464	703849
Hisobot davrining sof foydasi (zarari), $	152461	343653	533944	628094
Mahsulotlarni sotishdan tushgan sof tushumning rentabellik darajasi, %	2.90	4.91	6.35	7.17
Mahsulot ishlab chiqarish tannarxining rentabellik darajasi, %	3.20	5.42	7.01	7.92
Cotilgan mahsulot xarajatlarining rentabellik darajasi,%	3.30	5.67	7.92	8.47
Mahsulotni sotish rejasi, $	5253512	7004682	7880268	8755853
Mahsulotning zararsiz sotish koeffitsienti	0,36	0,37	0,38	0,39
Mahsulotni zararsiz sotish hajmi, $	1891264	2591732	7880268	8755853
Sof aylanma kapital, $	827787	1103716	1241680	1379645
Aktivlar, $	3059305	3404970	3931857	4663326
Majburiyatlar, $	1817939	1305385	769474	233564
Kapital, $	1241366	2099585	3162383	4429762

1 – jadvalda ssenariylar asosida donni qayta ishlash korxonasining 31300 tn donni qayta ishlab chiqarish quvvatidan kelib chiqqan holda korxona 1 yili 60%, 2 yili 80%, 3 yili 90%, 1 yili 100% miqdor quvvat bilan faoliyat ko‘rsatilganda erishilgan iqtisodiy ko‘rsatkichlarning natijalari aks keltirilgan. Bunda oliy sort un (50 kg qadoqlangan qopda) 1 yili 140850, 2 yili 187800, 3 yili 211275, 4 yili 234750 birlik; birinchi sort un (50 kg qadoqlangan qopda) 1 yili 140850, 2 yili 187800, 3 yili 211275, 4 yili 234750 birlik; bug‘doy chiqindisi 1 yili 4225500, 2 yili 5634000, 3 yili 6338250, 4 yili 7042500 birlik; texnik yo‘qotishlar 1 yili 469500, 2 yili 626000, 3 yili 704250, 4 yili 782500 birlikda mahsulot ishlab chiqariladi.

Zaxiraga olingan mahsulot (8,33%) oliy sort un (50 kg qadoqlangan qopda) 1 yili 11733, 2 yili 15644, 3 yili 17599, 4 yili 19555 birlik; birinchi sort un (50 kg qadoqlangan qopda) 1 yili 11733, 2 yili 15644, 3 yili 17599, 4 yili 19555 birlik; bug‘doy chiqindisi 1 yili 351984, 2 yili 469312, 3 yili 527976, 4 yili 586640 birlik; texnik yo‘qotishlar 1 yili 39109, 2 yili 52146, 3 yili 58664, 4 yili 65182 birlikni tashkil etadi.

Mahsulotni sotish oliy sort un (50 kg qadoqlangan qopda) 1 yili 129117$, 2 yili 172156$, 3 yili 193676$, 4 yili 215195$; birinchi sort un (50 kg qadoqlangan qopda) 1 yili 129117$, 2 yili 172156$, 3 yili 193676$, 4 yili 215195$; bug‘doy chiqindisi 1 yili 3873516, 2 yili 5164688, 3 yili 5810274, 4 yili 6455860 birlik; texnik yo‘qotishlar 1 yili 430391, 2 yili 573854, 3 yili 645586, 4 yili 717318 birlik tashkil etadi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi 1 yili 4759158$, 2 yili 6345544$, 3 yili 7138738$, 4 yili 7931931$; mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari 1 yili 5034049$, 2 yili 6612967$, 3 yili 7361065$, 4 yili 8107142$; hisobot davrining sof foydasi 1 yili 152461$, 2 yili 343653$, 3 yili 533944$, 4 yili 628094$ olish taklif etiladi. Mahsulotlarni sotishdan tushgan sof tushumning rentabellik darajasiga nisbatan rentabellik darajasi 2,90%, 4,91%, 6,35%, 6,35%; mahsulot ishlab chiqarish tannarxining rentabellik darajasiga nisbatan rentabellik darajasi 3,20%,

5,42%, 7,01%, 7,92%; sotilgan mahsulot xarajatlarining rentabellik darajasiga nisbatan rentabellik darajasi 3,30%, 5,67%, 7,92%, 8,47% ni tashkil etadi. Mahsulotni zararsiz sotish hajmi esa 1 yili 1891264$, 2 yili 2591732$, 3 yili 7880268$, 4 yili 8755853$ miqdorga ko‘payadi.

Demak, “ABC” korxonasida un mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihasining asosiy byudjeti (smetasi) mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, sifatli un mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot sotish hajmini ko‘paytirish, xarajatlarni kamaytirish uchun ishlab chiqarishning ichki zaxiralarni izlab topish, ichki salohiyatdan oqilona foydalanish, umumiy xarajatlarni kamaytirish, sof foydani ko‘paytirish bo‘yicha optimal qarorlarni qabul qilish yo‘llari ilmiy asoslab berildi.

Xulosa. O‘tkazilgan empirik tadqiqot natijasida donni qayta ishlash korxonalarida un mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjeti (smetasi)ni tuzishga doir algoritmlar va modellar ishlab chiqildi. Un mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjeti qoidasidan donni qayta ishlash korxonalari faoliyatida foydalanish imkoniyatini beradi. Ularning tipik shartlari rejalashtirish davriga mutanosib ravishda miqdor va sifat jihatdan hisobga olingan holda umumlashtirildi va tizimlashtirildi, un mahsulotlarining alohida turining samaradorligi baholandi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida donni qayta ishlash korxonalarida un mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjeti (smetasi)ni baholash mexanizmi ishlab chiqildi. Un mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjeti (smetasi)ni baholash asosida operativ va strategik rejalar ilmiy asoslandi va ular bo‘yicha optimal qarorlarni qabul qilish yo‘llari ilmiy asoslab berildi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida uzoq yillar kesimida (operativ va strategik rejalar asosida) qancha miqdorda oliy sort un (50 kg qadoqlangan qopda) mahsulotlari va qancha miqdorda birinchi sort un (50 kg qadoqlangan qopda) mahsulotlari ishlab chiqarilishi; qancha miqdorda oliy sort un (50 kg qadoqlangan qopda) mahsulotlari va qancha miqdorda birinchi sort un (50 kg qadoqlangan qopda) mahsulotlari sotish, mahsulot ishlab chiqarish tannarxi qancha miqdorda va mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari qancha miqdorda bo‘lishi, qancha miqdorda sof foyda olish va qancha miqdorda mahsulotni zararsiz sotish hajmi va ularning iqtisodiy tahlili bosh byudjet orqali ilmiy asoslab berildi.

Mazkur ishlab chiqilgan un mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihasining bosh byudjeti un mahsulotlariga bo‘lgan talabning keskin kamayishiga hamda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi keskinlashuvining oldini olishga ko‘maklashadigan vositalardan biri sifatida xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. https://www.wfp.org/news/tens-millions-risk-extreme-hunger-and-starvation-unprecedented-funding-crisis-spirals
2. Abdullayev A.Ya.@ Abdullayev J.A. (2024). Improvement of scientific methodological approaches of complex production accounting in grain processing factories // The Seybold report. https://doi.org/10.5281/zenodo.13986497
3. Abdullayev A.Ya. (2025). Improvement of the methodology of liquidity management of grain processing enterprises. https://doi.org/10.4236/ojbm.2025.131025
4. Abdullayev A.Ya.@ Abdullayev J.A. (2024). Improving the methodology of cash flow accounting in processing enterprises // The Seybold report. https://doi.org/10.5281/zenodo.14196541

5. Дробина Нина Сергеевна. Управленческий учет и бюджетирование бизнес процессов в зерновом подкомплексе АПК. Орел, 2013. 24 с.
6. Плетенской Дмитрий Михайлович. Развитие учетно-аналитического обеспечения бюджетирования бизнес-процессов в сельском хозяйстве. Москва, 2020. 23 с.
7. Сидоров С. А. Организация бюджетирования в системе управленческого учета. Москва, 2005. 20 с.
8. Терновых В. К. Бюджетирование в системе управленческого учета в интегрированных объединениях аграрной сферы. Воронеж, 2005. 26 с.
9. Янданов Л.Ю. Бюджетирование как система повышения эффективности финансово-хозяйственной деятельности сельскохозяйственных предприятий. Санкт-Петербург—Пушкин. 2020. 22 с.
10. Чая И.Т. Управленческий учет. – М.: Издательство «Юрайт», 2025. 355 с
11. Николаева О.Е., Шишкова Т.В. Классический управленческий учет. – М.: Издательство «Ленанд», 2025. 400 с.
12. Colin Drury. Management and cost accounting. Printed in China by RR Donnelley. Print Year: 2017. 866 p.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).